



YASSAVIYLIK VA UNING NAZARIY ASOSLARI

**Qo'chqarova Azizaxon Ulug'bek qizi
Mahmudova Arofatxon Abdumalikxon qizi**

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Donishmand fikricha, «Haqning so'zini emas, o'zini bilish» asosiy masaladir. Shuning uchun u bu dunyo rohatini qidiradigan so'fiy - so'fiy emas, toat-ibodat qilib, xalollik va poklikni targ'ib etib, dunyoning g'am-g'ussasini chekib, xalq tashvishi bilan yashagan insongina haqiqiy so'fiylar, deydi.*

Kalit so'zlar: *tasavvufiy, tariqat, ta'limot, ma'naviy, pir, murid, darvesh*

Asosiy Qism: Islom dini paydo bo'lgandan so'ng uning doirasida, Qur'on va hadis ahkomiga mos ravishda paydo bo'lgan tasavvufiy ta'limotlar X–XI asrlarga kelib Movarounnahrda ham keng tarqala boshladi.

Tasavvuf – Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining ma'naviy hayoti tarixidagi eng murakkab, o'zaro ziddiyatlarga to'lib-toshgan va muhim hodisalardan biri bo'lib, uning uchun tarkidunyochilik, bu dunyo boyliklaridan va nozu ne'matlaridan voz kechish, Alloh vasliga yetmak maqsadida pok, halol, o'z mehnati ila yashash, ixtiyoriy ravishdagi faqirlik xarakterli xususiyatlardan hisoblangan.

Markaziy Osiyoda tasavvufiy ta'limotlarning paydo bo'lishi Yusuf Hamadoniy (1048–1140) nomi bilan bog'liqdir. Yusuf Hamadoniy Marv va Buxoroda xonaqo va madrasa qurdirib, ko'plab turkigo'y, forsigoy shogirdlar tayyorladi. Buxorodagi shogirdlari orasida Hasan Andoqiy, Abdullo Baraqiy, Abduxoliq G'ijduvoniy va Ahmad Yassaviy alohida ajralib turardi. Keyinroq bu to'rt iste'dodli shogird Hamadoniy maktabini muvaffaqiyat bilan davom ettirdilar.

“Yassaviya”, “Naqshbandiya” tariqatlari Hamadoniy ta'limoti asosida shakllandi. Yassaviylik — tasavvufdagi tariqatlardan biri. Asoschisi Ahmad Yassaviy. 12-asrda O'rta Osiyoda paydo bo'lgan. Yassaviy ta'limotiga ko'ra, komil murshid (shayx)ning zimmasidagi birinchi vazifa oliy insoniy sifatlarni o'zida mujassam etish, shariat ilmini mukammal egallab, so'ng muridlarni ortidan ergashtirishga erishishdir.

Ahmad Yassaviy 1103-yilda Sarom (Sayram) qishlog'ida Shayx Ibrohim xonadonida dunyoga keladi. Keyinchalik u o'z ona yurtini asarlarida “Ul muborak Turkiston” deb tilga oladi. Yassaviy tug'ilganidan so'ng, ko'p o'tmay onasi – Muso Shayxning qizi Oysha xotun olamdan o'tadi. Yetti yoshida esa otasi vafot etadi. Kichik Ahmadning tarbiyasi opasi Gavhar Shahnoz zimmasiga tushadi. Buxoroda arab, fors tillarini o'rganish bilan bir qatorda, forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy, Abdulloh Baqriy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslahat bo'lib, davrning eng peshqadam olimi va so'fiysi Shayx Hamadoniy muridlari qatoridan joy oladi.



Shayx Hamadoniydan suluk odoblarini o'rganadi, ilm-u saboqlaridan bahramand bo'ladi. Ahmadning o'zi "Ustoz Yusuf Hamadoniy huzuriga 23 yoshida borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo'lg'onligini" aytadi. U o'z ustozining eng ishongan va e'tiborli xalifalaridan edi. Sharqshunos olim Orif Usmonning ma'lumotlariga ko'ra, Abdulholiq G'ijduvoniylardan bir kuni Yusuf Hamadoniydan shogirdlarining taqdiri xaqida so'zlab berishni iltimos qilgan. Shunda ustoz "Mening asl halifalarim avval Ho'ja Abdullo Bakriy, so'ngra Ho'ja Xasan Andoqiy, undan so'ng Xoja Ahmad Yassaviydir. Xoja Ahmad Yassaviy o'z navbati bilan halifalik qilganidan keyin bir oz vaqt o'tgach, o'z vatani Turkistonga ketadi. So'ngra uning o'rniga sen halifalik qilasan" – degan ekan. Voqealar ustoz Yusuf Hamadoniy aytganidek sodir bo'lib, keyinchalik Buxorodan o'z yurti Yassiga qaytgan Ahmad madrasa va honaqqo qurdirib, o'z atrofiga ko'plab shogirdlarni to'playdi.

Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63 yoshga yetgach, yer ostida hujra yasatib, "chilla"ga kirgan, qolgan umrini toat-ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yer ostida o'tkazgan.

Yassaviy Markaziy Osiyo madaniyati tarixida ilk turkiyzabon mutasavvif shoir sifatida ma'lumdir. Uning tasavvufni targ'ib ztuvchi turkiyda yozilgan she'rlari tilining xalqqa yaqinligi, ohangdorligi bilan tezda mashhur bo'lib ketdi.

Ya.ka ko'ra, murid quyidagi talablarga rioya qilishi zarur: biror kishini o'z murshididan ustun qo'ymasligi va unga mutlaq ehtiromla bilan bog'lanishi; zikr va idrok sohibi bo'lishi, ustozining ramzi va ishoratlarini oson ilg'ashi; so'zda to'g'ri, va'daga vafodor bo'lishi; ustozining amr, taklif, va'z va nasihatlarini nazardan soqit etmay kamolga intilishi. Haziniyning "Javohir ulabror" asarida Ya.ning asoslari quyidagicha qayd qilingan: tavhidga asoslangan tasavvufiy tushunchalar; shariat va payg'ambarning sunnatiga mutlaq bog'liqlik; shariatga tayangan tariqat; riyozat va mushohada; xilvat va zikr. Ya.da ilm-ma'rifat egallash, himmat va saxovat tuyg'ularini kamol toptirish, nafsga qarshi kurashda sobit bo'lish, halol mehnat bilan rizq topishga alohida ahamiyat berilgan. Ya. zikri jahriyga asoslanilgan. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, insonning asl vatani mutlaq borliq. Inson shu borliqda paydo bo'lgan, o'sha muqaddas borliqqa qaytmog'i muqarrar. Shu bois haqiqiy sufiy vatan va vatanparvarlik borasida tor tushunchaga berilmasligi kerak. Ya. ko'plab olim, shoir va davlat arboblari qalbini zabt aylagan. U faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson, Ozarbayjon, Turkiyada ham keng tarqalgan.

Yassaviy ham o'zining piri buzrukvorlari Shayx Yusuf Hamadoniyga o'xshab mol-dunyo to'plashga mutlaqo qiziqmaganini, kambag'alparvar va g'aribparvar bo'lib yashaganligini uning ba'zi hikmatlaridan ham bilsa bo'ladi. Mol-dunyoga, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni Yassaviy beayov tanqid qiladi:

Beshak biling bu dunyo barcha xalqdan o'taro,
Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro,



Oto, ono, qarindosh qayon ketdi, fikr qil,
To'rt oyoqlik cho'bin ot bir kun sango yetaro.

"FAQIRNOMA"da sabr haqida shunday fikrlar ta'kidlab o'tilgan:

"Faqr matsomi sakkiz turur: avval tavba turur, ibodat turur, muhabbat turur, sabr turur, shukr turur, rizo turur, zuhd turur, oriflits turur".

Yuqorida zikr etilgan sakkiz faqr maqomi necha yuz yil-lardan beri xoh darvesh bo'lsin, xoh boy, martaba egasi yoki qora budun bo'lsin, turkiy xalqlarning shu kunga qadar shonu sharafini namoyish etib kelgan "alperanlar"ning "eran-lik" vasflaridir. Nihoyatda qimmatli bu ma'naviy xususiyatlar millatimizning islomiyat bilan barobarlikda egalikka erishgan porloq fazilatlarini tantanasidir.

Qachonki riyozat, fano masalalariga kelganda u haqida shunday aytiladi:

Fano: yo'qlik, hechlik, qulning fe'lini unutish holi. Bu martabadagilar "la faila ilalloh" deydilar. Fano martabasi zikr, tafakkur va riyozat ila ishgo'ol etiladi. Uch turli fano mavjuddir.

XULOSA: Payg'ambarimizning faqirlik fahrimdir, degan muborak hadislariga asoslangan va uz tariqat yo'liga sodiq bo'lgan Hoja Ahmad Yassaviy hazrat Mir Alisher Navoiy yozganlaridek «Shohu gado aning irodat va ixlosi istoni»da bosh qo'yadigan maqomga erishdi. Ulug' shoir Ahmad Yassaviyni ulug'lab «Nasoyim ul-muxabbat» asarida «Makomati oliy va mashhur, karomati yuksak va cheksiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniyning ashobidindur» deganlar... Istaymizki, Ahmad Yassaviy kabi ulug' allomalar ruhi millatimiz va xalqimizning istiqboldagi yo'lida madadkor bo'lgay.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Yassaviy- "FAQIRNOMA"
2. <https://fayllar.org/ahmad-yassaviy-va-yassaviy-tariqati-v2.html>
3. <https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-ahmad-yassaviy-1105-1167/>
4. <https://n.ziyouz.com/books/adabiyotshunoslik/Abdurahmon%20Go'zal.%20Yassaviy%20Faqrnomasi.pdf>